

QASHQADARYO VILOYATI EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH

Hasanov Shuhrat Furqat o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika

Instituti talabasi

Annotatsiya: *Qashqadaryo viloyati iqlim jihatdan ham, tabiiy resurslar jihatdan ham juda boy hudud. Shu sababli ushbu hududda ekport mahsulotlari yetkazish qulay. Mazkur hudud eksport salohiyatini yanada oshirish mumkin.*

Kalit so'zlar: *iqtisodiyot, eksport, savdo aylanmasi, statistika qo'mitasieksport salohiyati.*

Qashqadaryo viloyat eksport salohiyati boy hudud bo'lib bu hududda

ko'plab mahsulotlar eksport qilinadi. Xususan joriy yilning eksport hajmiga nazar tashlaydigan bo'lsak. 2022 yilning yanvar-mart oylarida Qashqadaryo viloyatining tashqi savdo aylanmasi 173,1 mln dollarni (2021 yilning mos davriga nisbatan 160,3%), tashqi savdo aylanmasi tarkibida ekport hajmi 67,5 mln dollarni (39,0%) tashkil etgan. Tashqi savdo aylanmasi bo'yicha Rossiya (20,8%), Turkiya (19,3%), Xitoy Xalq Respublikasi (18,9%), Germaniya (4,4%) va Afg'oniston (3,7%) viloyatning eng yuqori ulushga ega hamkor davlatlari hisoblanadi.

Alohidha ta'kidlash lozimki, tahlil qilinayotgan davrda viloyat jami tashqi savdo aylanmasining 62,9%i 4 ta hudud, Qarshi (20,3%), Nishon (20,29%), Koson (11,2%) tumanlari va Qarshi shahri (11,1%) hissasiga to'g'ri keladi.

Eksport tarkibida kalava ipning ulushi - 61,7%, meva-savzavot mahsulotlari – 10,6%, to'qimachilik mahsulotlari – 9,5%, tabiiy qazilmalar (*marmar, oltingugurt, bo'r*) - 9,2%, oziq-ovqat mahsulotlari -2,2%, farmatsevtika mahsulotlari -1,8% va boshqa mahsulotlar -5,0%ni tashkil qilgan.

Shuningdek, viloyatda yog'och va undan yasalgan mahsulotlar eksporti o'tgan yilning mos davriga nisbatan 11,7 baravar, elektrotexnika mahsulotlari - 11,6 baravar, tabiiy qazilmalar - 11,4 baravar, spirtli ichimliklar – 11,1 baravar, oziq-ovqat mahsulotlari – 10,6 baravar va gigiyena vositalari 2,1 baravarga oshgan.

Joriy yilning boshidan beri dunyo iqtisodiyotida yuzaga kelgan tarang vaziyat, logistika bilan bog'liq jiddiy muammolarning yuzaga kelishiga qaramasdan, hukumat tomonidan eksportni rag'batlantirish bo'yicha tezkor chora-tadbirlar ko'riliши natijasida joriy yilning 1-choragida viloyatda eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 164,9 foizga oshgan. Eksportning 53,0 foizi tarmoq korxonalar (o'tgan yilning mos davrida – 61,8%), 47,0 foizi hududiy korxonalar (30,2%) tomonidan amalga oshirilgan. 2022 — 2026-yillarda Qashqadaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori ham qabul qilinib shu xususda bir qancha chora tadbirlar olib borilmoqda.

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, joriy yilning 1 sentyabr holatiga O'zbekiston qiymati 9,7 million AQSH dollariga teng bo'lgan 40,8 ming tonna tarvuz eksport qilgan. Ma'lumot o'rnida, eksport qilingan mazkur tarvuz mahsulotining eng ko'p

ulushi Qashqadaryo (7,2 ming tonna), Toshkent (5,3 ming tonna), Jizzax (5,1 ming tonna), Sirdaryo (4,6 ming tonna) va Xorazm (4,6 ming tonna) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi. Bundan ko'rinish turibdiki Qashqadaryo viloyat eksport salohiyati ildam o'rirlarni egallab kelmoqda. Shunday bo'lsada viloyatda eksport salohiyatini oshirish zarur.

Viloyat hokimi o'rribosari Oybek Shagazatovning ma'lumot berishicha, 2019 yilda hududiy eksportyor korxonalar tomonidan 20,8 million dollar sanoat, 34071 tonna 53,3 million dollarlik meva sabzavot eksporti amalga oshirilib, 2018 yilning mos davriga nisbatan eksport hajmi 3,2 barobarga ko'paydi.

5,5 million dollarlik 8 turdag'i yangi mahsulotlar eksporti yo'lga qo'yildi. Qolaversa, Bolgariya, Germaniya, Hindiston, Kipr, Koreya, Polsha, Ruminiya, Yaponiya kabi ilgari eksport amalga oshirilmagan 8 ta yangi davlatlarga 1,1 million dollarlik eksport amalga oshirilib, eksport geografiyasi 35 ta davlatni tashkil qildi.

2020 yilda viloyat eksport salohiyati 2019 yil eksportiga nisbatan 2,7 barobarga oshirilishi rejalashtirilgan. Belgilangan prognozning 55,7% sanoat mahsulotlari eksportini, 44,3% qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini, 0,3% oziq-ovqat sanoati mahsulotlari eksportini tashkil etadi.

Ushbu viloyat eksport salohiyatini oshirish uchun viloyatda bir qator xorijiy texnologiyalar olib kelish va chet davlatlar tajribasidan ma'lum miqdorda o'rnak olish zarur.